

Talabalar uchun doshqozonda osh damlandi



Xabaringiz bor, 7-oktabr kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Bir makon – o'n to'rt qozon" nomli milliy taomlar festivali o'tkazilgandi.



Bugun esa mantiqan ushbu festivalga hamohang tarzda institut hududida doshqozonda osh damlandi.





Ushbu jarayonni tashkil etishda institut rahbariyati, fakultet dekanlari, kafedra o'qituvchilari, institut profilaktika inspektori va va boshqalar bevosita ishtirok etdi.







Talabalar tomonidan esa yaratilayotgan shu kabi e'tibor uchun behad minnatdorchilik bildirildi.





Bundan maqsad nafaqat yotoqxonada istiqomat qiladigan talabalar uchun saxovatpeshalik qilish, balki rahbariyat va talabalar o'rtasidagi do'stona muhitni mustahkamlash sanaladi.